



Aktyor nutqini rivojlantirishda Sahna nutqi fanining ahamiyati

Baxoraxon G'ofurova

**QDU, "San'atshunoslik" kafedrasi
dotsenti**

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada aktyorlik san'atida nutq madaniyatining o'rni, sahna nutqi fanining nazariy va amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Shuningdek, sahna nutqining asosiy tarkibiy qismlari — tovush, nafas, diksiya, intonatsiya va mantiqiy urg'u kabi jihatlar tahlil qilinadi. Aktyor nutqini rivojlantirishda sahna nutqi mashqlarining o'rni, ularning ijro mahoratini oshirishdagi roli ilmiy asosda bayon etiladi. Maqolada sahna nutqi fanining aktyor shaxsini shakllantirishdagi pedagogik va estetik ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

Sahna nutqi, aktyorlik mahorati, diksiya, intonatsiya, nafas texnikasi, nutq madaniyati, sahna harakati, talaffuz, dramatik nutq, vokal texnika

“Sahnada so‘zning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan ko‘ra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish naqadar ahamiyatli ekanidan kelib chiqqan holda, pedagog “so‘z - sahna san‘atining qon tomiri” ekanligiga amal qilib, unga yaqindan yondoshmog‘i lozim”. ¹Zamonaviy teatr va kino san‘atida aktyorning nutqi uning ijodiy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Nutq orqali aktyor obrazni ochadi, tomoshabinga hissiy ta’sir ko‘rsatadi va muallif g‘oyasini yetkazadi. Shu bois sahna nutqi fani aktyor tayyorlash tizimida muhim o‘rin egallaydi. Sahna nutqi nafaqat to‘g‘ri talaffuz qilishni, balki nutq orqali obraz yaratish san‘atini ham o‘rgatadi.

Sahna nutqi — bu aktyorning sahnada erkin, ravon, ifodali va ta’sirchan so‘zlash qobiliyatini shakllantiruvchi fan hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan ya’ni: to‘g‘ri nafas olish texnikasini shakllantirish; tovush apparatini rivojlantirish; aniq va ravon diksiya ustida ishlash; nutqning mantiqiy va emotsional ifodasini ta’minlash; sahnada nutq orqali obraz yaratish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iboratdir. “Sahna nutqi talabalardan mantiqiy va obrazli fikrlash, sahnaviy xatti-harakatga asoslangan so‘z ustida ishlashga keng va atroflicha bilimga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Sahna nutqi avvalo, sahnadan turib aytilayotgan nutqdir”. ² Sahna nutqi aktyorning ichki kechinmalari va tashqi ifodasi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydi.

¹ U.Boltaboyeva, Sahna nutqi – Darslik, T.- Innovatsion-Ziyo -2023.

² U.Boltaboyeva, Sahna nutqi – Darslik, T.- Innovatsion-Ziyo -2023.

To'g'ri nafas olish sahna nutqining asosi hisoblanadi. Diafragmal nafas aktyorga uzoq va barqaror nutqni ta'minlaydi. Nafasni boshqarish orqali aktyor nutqining kuchi va davomiyligini nazorat qiladi.

Ovoz aktyorning asosiy quroli hisoblanib, uni to'g'ri yo'naltira olish, kuchaytirish va tembrini boyitish sahna nutqi mashqlari orqali rivojlantirilib boriladi. Tovushning aniqligi va jarangdorligi tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi.

Diksiya — so'zlarni aniq va tushunarli talaffuz qilish qobiliyatidir. Diksiya ustida ishlash til, lab va jag' mushaklarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu esa sahnada matnni aniq yetkazishga yordam beradi.

Intonatsiya nutqqa hissiy rang beradi. Mantiqiy urg'u esa gap mazmunini to'g'ri ochib beradi. Ushbu elementlar aktyorning nutqini jonli va ta'sirchan qiladi.

Sahna nutqi fanida qo'llaniladigan mashqlar aktyorning nutq apparatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: artikulyatsion mashqlar; talaffuz mashqlari; tez aytishlar (скороговорка); ovoz diapazonini kengaytirish mashqlari; nafasni boshqarish mashqlaridan iborat.

Nutq tovushlari insonning nutq organlari ishtirokida hosil bo'ladi. Ularning har biri hosil bo'lish o'ri va xususiyati bilan bir-biridan ajralib turadi. Nutq tovushlari so'zning bir bo'laki bo'lib, uning ajralmas qismidir. Inson talaffuz orqali bir-birini tushunadi, eshitadi. Ana shu eshitiladigan, talaffuz qilinadigan tovushlar nutq tovushlari deb yuritiladi. Nutq tovushlari mashqlari muntazam bajarilganda aktyorning nutqi ravonlashadi, ishonchliligi ortadi va sahnada erkin harakat qilish imkoniyati kengayadi.

Sahna nutqi aktyorning ijro mahoratini oshirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutqi rivojlangan aktyor o'ziga berilgan obrazni chuqurroq ochib bera oladi; tomoshabin bilan samarali aloqa o'rnatadi; sahnada o'zini erkin his qiladi; matnni ifodali va ta'sirchan yetkazadi. Shuningdek, sahna nutqi aktyorning umumiy madaniy saviyasini oshiradi va professional darajasini belgilaydi. Aktyorlar tayyorlashda ellik yildan ortiq vaqt davomida o'qitilayotgan "Sahna nutqi" fani tajribada sinalgan uslubiyat qonun-qoidalariga ega. Sahna nutqini shakllantirish jarayonida nutq texnikasi, ya'ni artikulyatsiya, diksiya, ovoz ustidagi mashg'ulotlar ko'p vaqt sarflanadi. Bo'lajak aktyorlardan nutqiy kamchiliklarni tuzatish, bilim ko'nikmalarini oshirish jarayonlari katta ma'suliyat talab etadi.

Bunda fanning texnika qismi, repertuar ustida ishlash qismi va badiiy so'z ustida ishlashga katta e'tiborini qaratiladi.

Sahna nutqi fani aktyorlik ta'limida pedagogik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. U nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki estetik didni shakllantiradi, badiiy tafakkurni kengaytiradi. Talabalarda so'zga hurmat, tilga e'tibor va ifoda madaniyatini tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, sahna nutqi fani aktyor nutqini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. U aktyorning nafaqat texnik, balki ijodiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Sahna nutqini mukammal egallagan aktyor sahnada o'z obrazini to'liq va ta'sirchan ifoda eta oladi. Shu bois aktyorlik ta'limida sahna nutqi faniga alohida e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To‘xtasinov A. Sahna nutqi asoslari. — Toshkent: San‘at nashriyoti, 2017. — 215 b.
2. Karimova D. Ovoz madaniyati va so‘z san‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti nashriyoti, 2019. — 180 b.
3. Qodirov B. Aktyorlik mahorati va nutq texnikasi. — Farg‘ona: FarPI nashriyoti, 2020. — 240 b.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma‘naviyat, 1999.
5. Hojiyev A. *O‘zbek tili stilistikasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
7. U.Boltaboyeva. Sahna nutqi., Darslik-2023y. Toshkent-Innovatsion-Ziyo/